



## HEROIC IMAGES IN KARAKALPAK FOLK EPICS AND THEIR PHILOSOPHICAL INTERPRETATION

*Guljakhan Muratbaevna Bazarbaeva*

*Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

*Nukus, Karakalpakstan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Karakalpak folklore, folk epic, epic hero, heroic image, philosophical interpretation, epic tradition, oral folk art, spiritual values.

**Received:** 17.04.26

**Accepted:** 18.04.26

**Published:** 19.04.26

**Abstract:** This article analyzes the illumination of heroic images in Karakalpak folk epics and their philosophical interpretation. The Karakalpak epic heritage is an important cultural source, embodying the historical memory, spiritual values, and social views of the people. The study scientifically illuminates the formation of the image of the hero in epic poems, its artistic features, and its role as a symbol representing the people's ideal. The philosophical essence of the concept of heroism, its connection with the spiritual thinking, historical experience, and social values of the people are analyzed.

## QORAQALPOQ XALQ DOSTONLARIDA QAHRAMONLIK OBRAZLARI VA ULARNING FALSAFIY TALQINI

*Guljaxan Muratbaevna Bazarbaeva*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

*Nukus Qoraqalpog'iston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** qoraqalpoq folklori, xalq dostoni, epik qahramon, qahramonlik obrazi, falsafiy talqin, epik an'ana, xalq og'zaki ijodi, ma'naviy qadriyatlar.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qoraqalpoq xalq dostonlarida qahramonlik obrazlarining yoritilishi va ularning falsafiy talqini tahlil qilinadi. Qoraqalpoq epik merosi xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari hamda ijtimoiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim madaniy manba hisoblanadi. Tadqiqotda epik dostonlarda qahramon obrazining shakllanishi, uning badiiy xususiyatlari hamda xalq idealini ifodalovchi timsol sifatidagi o'rni ilmiy

jihatdan yoritiladi. Qahramonlik tushunchasining falsafiy mohiyati, uning xalqning ma'naviy tafakkuri, tarixiy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.

## ГЕРОИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ В КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ ДАСТАНАХ И ИХ ФИЛОСОФСКОЕ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

*Гульджахан Муратбаевна Базарбаева*

*Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза  
Нукус Каракалпакстан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** каракалпакский фольклор, народный эпос, эпический герой, образ героизма, философская интерпретация, эпическая традиция, устное народное творчество, духовные ценности.

**Аннотация:** В данной статье анализируется освещение образов героизма в каракалпакских народных эпосах и их философская интерпретация. Каракалпакское эпическое наследие является важным культурным источником, воплощающим в себе историческую память, духовные ценности и социальные взгляды народа. В исследовании с научной точки зрения освещается формирование образа героя в эпических поэмах, его художественные особенности и роль в качестве символа, выражающего идеал народа. Анализируется философская сущность понятия героизма, его связь с духовным мышлением, историческим опытом и социальными ценностями народа.

**Kirish.** Xalq og'zaki ijodi har bir millat uchun ma'naviy-tarixiy xotiraning eng qadimiy va ishonchli xazinasini hisoblanadi. O'rta Osiyo xalqlari orasida qoraqalpoqlarning dostonchilik merosi o'zining hajmi, badiiy mukammalligi va falsafiy terangi bilan alohida e'tiborga loyiqdir. Qoraqalpoq dostonlari avloddan avlodga og'zaki yo'l bilan yetib kelgan va xalqning tarixiy tajribasini, ma'naviy qadriyatlarini, dunyo va insoniyat haqidagi tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan. Folklorshunos olim A.S.Sidelnikov [2] ta'kidlaganidek, epik doston xalqning «poetik ensiklopediyasi» bo'lib, unda milliy hayotning barcha qirralari - ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me'yorlar, tarixiy voqealar va metafizik qarashlar o'z ifodasini topgan. Qoraqalpoq xalq dostonlari bu ta'rifga to'liq javob berib, o'ziga xos epik koinot - «dostoniy olam»ni yaratadi. Ushbu olamning markazida esa muqarrar ravishda qahramon turadi.

**Adabiyotlar tahlili va metod.** Qoraqalpoq xalq dostonlari, ularning poetikasi, dostonchilikdagi qahramon obrazlari hamda tarixiy-madaniy ahamiyati ko'plab olimlar

tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, qoraqalpoq folklorshunoslari va adabiyotshunoslari tomonidan epik merosning genezisi, badiiy xususiyatlari va tarixiy ildizlari ilmiy jihatdan o'rganilgan.[3] Bu borada qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash, nashr qilish hamda ilmiy tahlil etishga bag'ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi[4]. Turkiy xalqlar dostonchilik merosi, qahramonlik eposining shakllanishi va rivojlanishiga doir tadqiqotlarda qahramon obrazining ijtimoiy-madaniy mohiyati ham yoritilgan.[5] Ayrim ilmiy ishlarda qahramonlik dostonlari xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari hamda ijtimoiy idealini ifodalovchi badiiy-falsafiy manba sifatida talqin qilinadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, qoraqalpoq xalq dostonlarida qahramonlik obrazining shakllanishi va rivojlanishini aniqlashda tarixiy-qiyosiy metod qo'llanildi. Dostonlarda aks etgan qahramon obrazlari, syujet va motivlarni o'rganishda matn tahlili hamda folklorshunoslik metodlaridan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** Qahramon - epik matnning bosh tashkil etuvchi elementi. U faqat shaxs emas, balki butun bir xalqning orzulari, qarashlari, axloqiy me'yorlari va tarixiy xotirasining timsoli. Folklorshunos O'.Qoraziyev [8] belgilashicha, qoraqalpoq dostonlarida qahramon obrazi ikki qatlamli tuzilishga ega: birinchi qatlam - tarixiy prototip yoki ijtimoiy ideal, ikkinchi qatlam - universal, umuminsoniy va metafizik mohiyat. Bu ikki qatlam bir-birini to'ldirib, mukammal obrazni vujudga keltiradi.

Falsafiy nuqtayi nazardan qahramon tushunchasi «boshqalar uchun o'zi»ni qurbon qilishga tayyor bo'lgan, trans-shaxsiy (transindividual) mohiyatga ega insonni anglatadi. Antik falsafada Aristotel qahramon (heros)ni tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi vositachi, deyarli ilohiy qudratga ega shaxs sifatida ta'riflagan.[7] Bu falsafiy kontekstda qoraqalpoq dostonchiligida qahramon obrazlari yangi ma'no qirralari bilan boyiydi.

Falsafiy nuqtayi nazardan qoraqalpoq dostonlaridagi qahramon obrazini o'rganish, bu obrazning oddiy badiiy timsoldan ancha chuqur va kengroq falsafiy ma'noga ega ekanini ko'rsatadi. Jumladan:

Ontologik jihatdan qahramon inson imkoniyatlarining hatti-harakatini ifodalaydi. U o'lim oldida qo'rqmaydigan, hayot va o'limning ma'nosini anglaydigan, vaqtincha shaxsiy mavjudligini abadiy manfaatlarga bo'ysundira oladigan shaxsdir.

Aksiologik jihatdan qahramon qoraqalpoq xalqining qadriyatlar ierarxiasini mujassam etadi. Bu ierarxiyada milliy manfaat shaxsiy manfaatdan, jamoat eziguligi individual manfaatdan, axloqiy to'g'rilik moddiy foyda-manfaatdan ustun turadi.[9] Qahramonning hayot yo'li - bu yuqori qadriyatlar uchun kurash va ular yo'lida o'z «men»ini qurbon qilish yo'lidir.

Qahramonlik - faqat jismoniy jasorat yoki harbiy muvaffaqiyat emas. Qoraqalpoq dostonlarida qahramonlik tushunchasining ma'naviy-falsafiy mazmuni ancha chuqur va ko'p qirralidir. Dostonlarda qahramonlikning ikki asosiy shakli - tashqi va ichki qahramonlik ajralib turadi.

Tashqi qahramonlik - kuchli dushmanlar bilan jangda, xalqni himoya qilishda, qiyin sinovlardan o'tishda namoyon bo'ladi. Bu qahramonlikning ko'rinadigan, epik jihatdan tasvirlanadigan shaklidir. Lekin dostonlarning chuqur qatlamlarida ichki qahramonlik ham mavjud - axloqiy sinovlarda mustahkam turish, vasvasalarga berilmaslik, adolatdan voz kechmaslik, zaif va mazlumlarga yordam qo'lini uzatish.

Qoraqalpoq dostonlarida qahramonlikning falsafiy mazmunini ifodalovchi muhim tushuncha - «ma'naviy ozodlik». Qahramon faqat jismonan emas, balki ruhan ham ozod bo'lishi lozim. Qo'rquvdan, manfaatparastlikdan, g'ururdan ozod bo'lgan qahramon haqiqiy ma'noda erkin inson va erkin qahramon hisoblanadi. Bu tushuncha qadimgi stoik falsafadagi ozodlik tushunchasi bilan uyg'un bo'lib, qoraqalpoq xalqining falsafiy fikrlarining chuqurligi va umumiylikini ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodida epik qahramon har doim aniq tarixiy va madaniy kontekst bilan munosabatda mavjud bo'ladi. Qoraqalpoq dostonlaridagi qahramon obrazlari xalqning tarixiy tajribasi - urushlari, ko'chlari, qiyinchiliklari va zafarlarining badiiy yodnomasini aks ettiradi.[1] Tarixiy xotira va epik an'ana o'rtasidagi munosabat bir tomonlama emas. Bir tomondan, tarixiy voqealar dostonlar syujeti va qahramonlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan, epik qahramonlar o'zlari ham tarixiy xotirani shakllantirishga qatnashadi: ular xalqning o'z o'tmishini qanday eslaganligi va qanday anglaganligini ifodalaydi. Bu ikki tomonlama munosabat doston va tarix o'rtasida «hermenevtik doira» hosil qiladi.

Xalqning og'ir tarixiy sinovlari - bosqinchilik, qaramlik, ko'ch-ko'ronlar - qoraqalpoq dostonlaridagi qahramonlikning ma'nosini yanada teranlashtirdi. Qahramon - bu og'ir tarixiy kunlarda xalqning tirik qolish iroda va istagining ramzi bo'ldi. P.Qodirov [6] ta'kidlaganidek, «Qo'rqinchli davrlarda xalq o'z qahramonlariga murojaat qiladi, chunki bu qahramonlar unga kuch, umid va ma'no beradi».

Qoraqalpoq dostonlaridagi qahramon obrazlarining zamonaviy jamiyat uchun ahamiyati kamayib ketmagan, aksincha, yangi o'lchov va teran mazmunni kasb etgan. Globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlash, madaniy merosga e'tibor va yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish masalalari keskin dolzarb bo'lib qoldi. Bu vaziyatda epik qahramon obrazlari ma'naviy yo'riqchi va tarbiyaviy namuna sifatida o'z vazifasini davom ettirmoqda. Doston qahramonlarning yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi:

birinchidan, qahramonlar kuch, jasurlik va fidoyilik namunasi sifatida yoshlarga haqiqiy qahramonlik ma'nosini tushuntiradi; ikkinchidan, qahramonlik motivlari milliy o'zlikni anglash va faxrlanish hissini kuchaytiradi; uchinchidan, dostonlardagi axloqiy mezonlar va qadriyatlar tizimi yoshlarning ma'naviy tarbiyasida asos bo'ladi; to'rtinchidan, qahramonlarning vatanparvarlik namunasi yoshlarda Vatanga muhabbat va milliy burch hissini shakllantiradi.

Qoraqalpoq xalq dostonlarida qahramon obrazining shakllanishi bir necha tipologik bosqichlarni bosib o'tgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu bosqichlar quyidagicha belgilanishi mumkin: mifologik qahramon bosqichi, tarixiy qahramon bosqichi va ijtimoiy-falsafiy qahramon bosqichi.

Birinchi bosqichda - mifologik davrda - qahramon obrazi tabiatdagi kuchlar, ilohiy qudrat va kosmik tartib bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Qoraqalpoq dostonlarida bu bosqichning izlari qahramon tug'ilishi, uning g'ayritabiiy kuchlarga egaligi, tabiat bilan muloqotida aniq ko'rinadi.

Ikkinchi bosqich - tarixiy davrga tegishli bo'lib, bu davrda qahramon reallashtiriladi, tarixiy-ijtimoiy aniqlik kasb etadi. U muayyan tarixiy davr va ijtimoiy muhitga mansub shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchi bosqich - ijtimoiy-falsafiy - qahramonning murakkab ichki dunyosi, axloqiy tanlov va ma'naviy kamolot muammolarini kengaytirib ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda qahramon nafaqat jismoniy kuch egasi, balki ma'naviy jihatdan kamol topgan, hayot va o'lim, erkinlik va majburiyat, shaxsiy manfaat va jamoat manfaati o'rtasidagi ziddiyatni hal etishga qodir insondir.

Qoraqalpoq dostonlari yaratilishi va avloddan avlodga o'tib kelishi jarayonida xalqning ma'naviy ideali - mukammal insonning qanday bo'lishi kerakligi haqidagi orzusi ham shakllangan va mustahkamlangan. Bu ideal yaratilish jarayonida qahramon obrazi asosiy me'zon va o'lchov vazifasini bajargan.

Xalq ideali qoraqalpoq dostonlarida bir necha yo'nalishda ifodalanadi: kuch va jasurlik ideali (jismoniy kamolot); aql va donishmandlik ideali (intellektual kamolot); adolat va halollik ideali (axloqiy kamolot); Vatanparvarlik va xalqparvarlik ideali (ijtimoiy kamolot). Bu to'rt yo'nalish birga qo'shilganda yaxlit va mukammal qahramon obrazini vujudga keltiradi.

Muhim e'tibor bilan ta'kidlash lozimki, qoraqalpoq dostonlarida qahramon hech qachon mutlaq mukammal va xatosiz tasvir etilmaydi. U ham yanglishadi, ham qiyinchiliklarga duch keladi, ham shubha va ikkilanish sezadi. Aynan mana shu insoniy zaifliklar va ularni yengish jarayoni qahramonni yashirinroq va chuqurroq falsafiy ma'noga ega qiladi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot natijalarini umumlantirib, quyidagi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin.

Birinchiidan, qoraqalpoq xalq dostonlarida qahramonlik obrazi epik matnning markazi va asosiy tashkil etuvchi elementi sifatida namoyon bo'lib, u xalqning ma'naviy ideali, tarixiy xotirasi va falsafiy dunyoqarashining badiiy timsoli hisoblanadi. Bu obraz oddiy shaxs tasviridan tashqariga chiqib, transindividual va arxetipal mohiyat kasb etadi.

Ikkinchiidan, qoraqalpoq xalq dostonlari qahramonlarining badiiy-falsafiy mohiyati ko'p qatlamli tuzilishga ega: uning ontologik, aksiologik va gnoseologik qirralari bir-birini to'ldirib, yaxlit falsafiy tizimni tashkil etadi. Qahramon obrazi - bu nafaqat badiiy obraz, balki xalqning insoniylik, kamolot va ma'naviy ozodlik haqidagi chuqur falsafiy qarashlari ifodasidir.

Uchinchiidan, qoraqalpoq dostonlaridagi qahramon obrazlari milliy madaniyat va ma'naviyatning muhim tashkil etuvchi elementi bo'lib, ular xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi «ma'naviy ko'prik» vazifasini o'taydi. Bu obrazlar xalqning tarixiy sinovlardan o'tib kelishidagi ruhiy-ma'naviy tayanchning badiiy ifodasidir.

To'rtinchiidan, qoraqalpoq dostonlarining zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy roli hali tugamagan. Epik qahramon obrazlari yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik va milliy g'urur ruhida tarbiyalash uchun nodir ma'naviy manba sifatida qo'llanilishi lozim. Bu maqsadda dostonlarning ilmiy tadqiqi, falsafiy talqini va zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiqi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, qoraqalpoq xalq dostonlari va ulardagi qahramonlik obrazlari - bu nafaqat o'tgan zamonlarning yodnomalari, balki kelajak avlodlar uchun ma'naviy meros, milliy kimlik va falsafiy tafakkur manbai bo'lib qola beradi. Ushbu merosni asrash, o'rganish va keng ommalarga yetkazish — zamonaviy ilmning muhim va ma'suliyatli vazifasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Dovqaroev N. Qoraqalpoq xalq eposi. Nukus: Qoraqalpog'iston, 1963.
2. Sidelnikov, A. S. (1947). Ustnoe poeticheskoe tvorchestvo karakalpakskogo naroda. Tashkent: AN UzSSR.
3. Баскаков Н.А. Тюркский языки. –Москва: Наука, 1960. -248 б.
4. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. –Ленинград: -Наука, 1974. -727 б.
5. Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса. –Москва: Восточная литература, 1963. -462 б.
6. Qodirov, P. Qahramonlik va fidoyilik: O'zbek eposida ma'naviy ideallar. Toshkent: Fan. 1979.
7. Qodirov P. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi. –Nukus^Qoraqalpog'iston. 1985. - 276 b.

8. Qoraziyev, O'. Qoraqalpoq dostonlarining tipologiyasi va poetikasi. Nukus: Qoraqalpog'iston. 2003.

9. Qoraziyev O'. Qoraqalpoq dostonlarining poetikasi. –Nukus: Bilim, 1993. -198 b.